

20-Aprel, 2026-yil

**PIRLS METODIKASI ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINIF
O‘QUVCHILARINING KOGNITIV KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH**

Shoymurodova Farangiz Xamza qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

“Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Xudayberdiyeva Dilafruz Abidovna

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

“Pedagogika va psixologiya” kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada PIRLS metodikasining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirishdagi ilmiy-pedagogik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda PIRLS tipidagi topshiriqlar orqali o‘quvchilarning matnni anglash, tahlil qilish va baholash kabi yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari asoslab berilgan. Shuningdek, interfaol va o‘quvchi markazli yondashuvlar orqali kognitiv faollikni oshirishning samarali mexanizmlari ko‘rsatib o‘tilgan. Natijalar PIRLS metodikasini tizimli qo‘llash o‘qish savodxonligini rivojlantirish va mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirishda muhim pedagogik omil ekanini tasdiqlaydi.*

Kalit so‘zlar: *PIRLS, kognitiv ko‘nikmalar, pedagogik samaradorlik, metod, interpretatsiya, mantiqiy tahlil, tanqidiy fikrlash, interfaol, matn bilan ishlash.*

Аннотация: *В данной статье анализируются научные и педагогические основы методологии PIRLS, направленной на развитие когнитивных навыков у учащихся начальной школы. Исследование подтверждает потенциал заданий типа PIRLS для развития у учащихся навыков высшего уровня мышления, таких как понимание, анализ и оценка текста. Кроме того, продемонстрированы эффективные механизмы активизации познавательной деятельности посредством интерактивных и ориентированных на учащихся подходов. Результаты подтверждают, что систематическое применение методологии PIRLS является значимым педагогическим фактором в развитии навыков чтения и формировании самостоятельного мышления.*

Ключевые слова: *PIRLS, когнитивные навыки, педагогическая эффективность, метод, интерпретация, логический анализ, критическое мышление, интерактивность, работа с текстом.*

Annotation: *This article analyzes the scientific and pedagogical foundations of the PIRLS methodology for developing cognitive skills in elementary school students. The study substantiates the potential of PIRLS-type tasks for developing students' higher-order thinking skills, such as text comprehension, analysis, and evaluation. Additionally, effective mechanisms for enhancing cognitive activity through interactive and student-centered*

20-Aprel, 2026-yil

approaches are demonstrated. The results confirm that the systematic application of the PIRLS methodology is an important pedagogical factor in developing reading literacy and fostering independent thinkers.

Key words: *PIRLS, cognitive skills, pedagogical effectiveness, method, interpretation, logical analysis, critical thinking, interactive, text work.*

KIRISH

Hozirgi globallashuv va axborotlashuv davrida ta’lim tizimi oldida turgan ustuvor vazifalardan biri — o‘quvchilarning chuqur va tizimli bilimga ega bo‘lishi bilan bir qatorda, ularning kognitiv faoliyatini rivojlantirishdan iboratdir. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning tafakkur jarayonlari, mustaqil fikrlash, tahlil qilish, umumlashtirish va muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Zero, aynan shu bosqichda shakllangan kognitiv kompetensiyalar keyingi ta’lim bosqichlarining samaradorligini belgilab beradi.

So‘nggi yillarda xalqaro baholash dasturlariga bo‘lgan e’tibor ortib borayotganligi ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Xususan, PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) xalqaro tadqiqoti boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligi darajasini aniqlash bilan birga, ularning matni tushunish, interpretatsiya qilish, tahlil etish va baholash kabi murakkab kognitiv jarayonlarini ham qamrab oladi. Ushbu metodika o‘quvchilarning faqatgina reproduktiv bilimlarini emas, balki yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilganligi bilan alohida ahamiyatga ega.

Ushbu maqolada PIRLS metodikasi asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy asoslari, pedagogik imkoniyatlari hamda amaliy tatbiq etish yo‘llari tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini oshirish jarayonida samarali metod va usullarni qo‘llash orqali ularning intellektual faolligini kuchaytirish masalalari yoritiladi.

Mavzuning dolzarbligi boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning kognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirish bugungi ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilardan nafaqat bilimlarni egallash, balki ularni tahlil qilish, mustaqil fikrlash va amaliyotda qo‘llash talab etilmoqda. PIRLS metodikasi esa aynan shu ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali vosita sifatida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, ushbu metodika asosida kognitiv ko‘nikmalarni shakllantirish masalasini o‘rganish dolzarb hisoblanadi.

MAVZU BO‘YICHA ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligi va kognitiv rivojlanishi masalasi jahon va milliy pedagogikada keng tadqiq etilgan yo‘nalishlardan bir hisoblanadi.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) xalqaro baholash dasturining nazariy asoslari I.V.S. Mullis va M.O. Martin tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib,

20-Aprel, 2026-yil

ular o‘qishni shunchaki texnik jarayon emas, balki murakkab aqliy faoliyat sifatida ta’riflaydi. Ularning tadqiqotlariga ko‘ra, o‘quvchi matn bilan ishlash jarayonida to‘rt xil kognitiv jarayonni (axborotni topish, xulosa chiqarish, interpretatsiya va baholash) amalga oshirishi shart¹⁰. Shuningdek, J. Piaje va L. Vigotskiyning kognitiv rivojlanish nazariyalari boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarning tafakkur xususiyatlarini tushinishda fundamental asos bo‘lib xizmat qiladi. PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) — boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligi darajasini o‘lchovchi xalqaro baholash dasturidir. Ushbu dastur har besh yilda bir marta dunyoning turli mamlakatlarida 4-sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkaziladi va ularning matni o‘qish, tushunish hamda unga munosabat bildirish qobiliyatlarini o‘rganishga qaratilgan.

PIRLS asosida kognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari:

Matni tushunish va tahlil qilish: O‘quvchilarga nafaqat o‘qishni, balki matn mazmunini to‘liq anglash, asosiy g‘oyani aniqlash va qahramonlar harakatiga baho berishni o‘rgatish.

Mantiqiy va tanqidiy fikrlash: Savollarga javob berishda matndagi ma’lumotlarga tayanish, sabab-oqibat bog‘liqliklarini topish va o‘z fikrini asoslash. Axborotni izlash va qayta ishlash: Matn tarkibidan kerakli faktlarni tezkorlik bilan topish va ularni tizimlashtirish ko‘nikmasini shakllantirish.

Ijodiy yondashuv: O‘qilgan matn asosida o‘z fikr-mulohazalarini bayon etish, xulosa chiqarish va ijodiy topshiriqlarni bajarish¹¹.

Amalga oshirish usullari:

Interfaol metodlar: O‘quvchilarni faol muloqotga jalb etish, "Klaster", "Sinkveyn", "FSMU" kabi usullardan foydalanish.

Matn bilan ishlash: Turli janrdagi matnlar (badiiy, ilmiy-ommabop) bilan ishlash va ularni tahlil qilish.

Savollar ustida ishlash: Ochiq va yopiq turdagi savollardan foydalanib, o‘quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish.

Mustaqil fikrlashni rag‘batlantirish: O‘quvchilarni o‘z fikrlarini erkin bayon etishga va bir-birlarining fikrlarini tahlil qilishga o‘rgatish¹². PIRLS metodikasi orqali o‘quvchilarning kognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularning kelajakda o‘z ustida mustaqil ishlash hamda axborot bilan samarali ishlash qobiliyatini oshiradi.

Kognitiv rivojlanishning ijtimoiy-madaniy asosi L.S. Vygotskiy tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u "yaqin rivojlanish zonasi" (zone of proximal development) konsepsiyasi orqali ta’limning taraqqiyotdan oldinda yurishi va ijtimoiy muloqotning intellektual o‘sisdagi hal qiluvchi rolini isbotlab bergan¹³. J. Bruner esa ushbu jarayonni faol o‘rganish va kashf etish orqali amalga oshirishni, ya’ni o‘quvchi ma’lumotni tayyor holda olishi emas,

¹⁰ Mullis I.V.S., Martin M.O. PIRLS 2021 Assessment Frameworks. – Boston College, 2019.

¹¹ https://www.researchgate.net/publication/398867164_PIRLS_XALQARO_TADQIQOTI_ASOSIDA_BOSHLANG'ICH_SINF_O'QUVCHILARIDA_O'QISH_SAVODXONLIGINI_RIVOJLANTIRISH

¹² Ismoilov A.A. va boshqalar. "Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash va rivojlantirish: o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma". – Toshkent: Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, 2021.

¹³ Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.

balki "kashfiyotchi" sifatida ishtirok etishi lozimligini ilgari suradi¹⁴. J. Piaje va L. Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan klassik nazariyalar bugungi raqamli avlod (Alfa avlodi) uchun yangicha talqinni talab etadi. Xususan, PIRLS metodikasi faqat matnni anglash darajasini o‘lchabgina qolmay, o‘quvchida "gipermatnli tahlil" (bir vaqtning o‘zida matn, rasm va infografikani birlashtirish) ko‘nikmasini shakllantiruvchi vosita sifatida qaralishi lozim.

O‘zbekistonlik olimlardan A.A. Ismoilov xalqaro baholash dasturlarining milliy ta’lim tizimiga integratsiyasi masalalarini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Uning ta’kidlashicha, PIRLS topshiriqlari o‘quvchini mantiqiy fikrlashga va axborotni transformatsiya qilishga o‘rgatadi¹⁵. Metodist olima T.U. Ziyodova o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda matn ustida ishlashning innovatsion usullarini tadqiq etib, o‘qish savodxonligini "hayotiy kompetensiya" sifatida baholagan¹⁶. O‘zbekiston Respublikasining milliy o‘quv dasturlarida ham o‘quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlashini shakllantirish davlat siyosati darajasidagi vazifa sifatida belgilangan¹⁷. Adabiyotlar tahlili natijasida shuni ta’kidlashimiz mumkinki, ko‘plab tadqiqotchilar o‘qish savodxonligini faqat til o‘rganish fani bilan bog‘laydilar. Biroq, bizning yondashuvimizga ko‘ra, kognitiv ko‘nikmalarni PIRLS metodikasi orqali rivojlantirish — bu fanlararo integratsiyaning asosi bo‘lib, u o‘quvchining matematik va tabiiy fanlardagi masalalarni ham mantiqiy tahlil qilishiga poydevor yaratadi.

Tadqiqotning maqsadi boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida PIRLS xalqaro baholash dasturi metodikasini tizimli qo‘llash orqali o‘quvchilarning kognitiv ko‘nikmalarini (axborotni izlash, mantiqiy xulosa chiqarish, interpretatsiya va tanqidiy tahlil) rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini asoslash hamda uning ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rnini ilmiy jihatdan yoritib berishdir.

MUHOKAMA VA NATIJA

PIRLS baholash dasturida doimiy yuqori natijalarga erishib kelayotgan mamlakatlar tajribasi boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishga intilayotgan davlatlar uchun muhim namuna bo‘la oladi. Ayniqsa, Singapur, Finlandiya va Angliya kabi mamlakatlar bu borada aniq strategiyalarga tayanib, o‘quvchilarning o‘qish va tushunish ko‘nikmalarini tizimli rivojlantirishga erishgan¹⁸.

1. Singapur tajribasi. Singapurda o‘qish savodxonligini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu yerda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ishlab chiqilgan “Reading to Learn” dasturi orqali bolalarda matnga tanqidiy yondashuv, asosiy fikrni aniqlash, dalillarni baholash ko‘nikmalari shakllantiriladi¹⁹. Mening fikricha, Singapur modelining muvaffaqiyati darsliklardagi matnlarning murakkablik darajasi o‘quvchining yoshiga nisbatan kognitiv yarata olishidadir. Bu esa o‘quvchini doimiy izlanishga majbur qiladi.

¹⁴ Bruner, J. S. (1996). *The Culture of Education*. Cambridge, MA: Harvard University Press.

¹⁵ Ismoilov A.A. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash. – T.: 2021.

¹⁶ Ziyodova T.U. O‘quvchilarning o‘qish savodxonligini oshirish metodikasi. – T.: 2023.

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. (2021). *O‘qish savodxonligi bo‘yicha Milliy o‘quv dasturi*. Toshkent.

¹⁸ Mullis, I. V. S., & Martin, M. O. (2017). *PIRLS 2021 Assessment Frameworks*. Chestnut Hill, MA: Boston College.

¹⁹ Singapur Ta’lim Vazirligi (MOE). *English Language Syllabus 2020: Primary*.

20-Aprel, 2026-yil

2. Finlandiya tajribasi. Finlandiya ta’lim tizimi individuallashtirilgan o‘qitish va bolalarga nisbatan ishonchga asoslanganligi bilan ajralib turadi. O‘qish darslarida o‘quvchilarga ko‘proq o‘quv materiallari tanlash imkoniyati beriladi. Darslar muhokama, taxmin qilish va o‘quvchining his-tuyg‘ularini ifodalashga yo‘naltirilgan²⁰. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, Finlandiya tajribasidagi "o‘qish zavqi" (reading for pleasure) tamoyili o‘quvchining ichki motivatsiyasini uyg‘otadi, bu esa PIRLSning "baholash va talqin qilish" kabi murakkab kognitiv darajalarini osonroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

3. Angliya tajribasi. Angliya maktablarida “Guided Reading” (yo‘naltirilgan o‘qish) metodikasi keng joriy etilgan. Bu usulda kichik guruhlar bilan ishlash orqali o‘quvchilar matn ustida chuqur tahlil olib boradilar²¹. Shuni ta’kidlashimiz lozimki, Angliya tajribasidagi kichik guruhlarda ishlash tizimi o‘qituvchiga har bir o‘quvchining kognitiv rivojlanish trayektoriyasini yaqindan kuzatish imkonini beradi.

TAVSIYALAR

Xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, O‘zbekiston ta’lim tizimida ham o‘qish savodxonligini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi takliflarini ilgari suramiz: Matn tanlash erkinligi: Finlandiya tajribasidagi kabi o‘quvchilarga darslikdan tashqari qiziqarli badiiy va ilmiy-ommabop matnlarni tanlash imkonini berish.

Angliyaning "Guided Reading" usuliga tayanib, milliy o‘quv dasturidagi har bir matn uchun PIRLS mezonlariga mos (4 darajali) savollarni yaratish.

Singapur tajribasi asosida o‘quvchilarning o‘qish darajasiga qarab topshiriqlarni murakkablashtirib borish²².

Ushbu tajribalar shuni ko‘rsatadiki, PIRLS baholash mezonlarini ta’lim jarayoniga integratsiyalash faqat dars metodikasini o‘zgartirish emas, balki o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan munosabatini ham ijobiy tomonga o‘zgartiradi. O‘zbekistonda ham ushbu metodikani tizimli joriy etish o‘quvchilarning xalqaro reytinglardagi o‘rnini mustahkamlash bilan birga, ularning intellektual mustaqilligini ta’minlaydi.

XULOSA

PIRLS metodikasi o‘quvchilarda axborotni izlab topishdan tortib, matn mazmunini tanqidiy baholashgacha bo‘lgan to‘rt darajali kognitiv jarayonni (aniq axborotni topish, xulosa chiqarish, interpretatsiya qilish va baholash) rivojlantirishga xizmat qiladi. Badiiy va axborotga boy matnlar bilan ishlash jarayonida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi, voqea-hodisalar o‘rtasidagi sabab-oqibat aloqalarini bog‘lash hamda muallif maqsadini tushunish darajasi sezilarli darajada oshayotgani kuzatildi. Kognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirishda an’anaviy "savol-javob" usulidan voz kechib, muammoli vaziyatlarni yaratish, grafik tashkilotchilar (Venn diagrammasi, "Baliq skeleti" va boshqalar) bilan ishlash eng samarali vositalar ekanligi isbotlandi. Xulosa qilib aytganda, PIRLS metodikasi — shunchaki baholash vositasi emas, balki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini XXI asr ko‘nikmalari bilan qurollantiruvchi, ularning tafakkur doirasini kengaytiruvchi muhim strategik yondashuvdir.

²⁰ Sahlberg, P. (2015). *Finnish Lessons 2.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland?* New York: Teachers College Press.

²¹ Angliya Ta’lim Departamenti (DfE). *The National Curriculum in England: Key Stages 1 and 2 Framework Document*. [Elektron resurs].

²² Ismoilov, A. A. (2021). *Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash*. Toshkent: Ta’lim inspeksiyasi.

1. Mullis I.V.S., Martin M.O. PIRLS 2021 Assessment Frameworks. – Boston College, 2019.

2. https://www.researchgate.net/publication/398867164_PIRLS_XALQARO_TADQIQOTI_ASOSIDA_BOSHLANG'ICH_SINF_O'QUVCHILARIDA_O'QISH_SAVODXONLIGINI_RIVOJLANTIRISH

3. Ismoilov A.A. va boshqalar. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash va rivojlantirish: o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma". – Toshkent: Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, 2021.

4. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.

5. Bruner, J. S. (1996). *The Culture of Education*. Cambridge, MA: Harvard University Press.

6. Ismoilov A.A. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash. – T.: 2021.

7. Ziyodova T.U. O'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirish metodikasi. – T.: 2023.

8. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. (2021). O'qish savodxonligi bo'yicha Milliy o'quv dasturi. Toshkent.

9. Mullis, I. V. S., & Martin, M. O. (2017). *PIRLS 2021 Assessment Frameworks*. Chestnut Hill, MA: Boston College.

10. Singapur Ta'lim Vazirligi (MOE). *English Language Syllabus 2020: Primary*.

11. Sahlberg, P. (2015). *Finnish Lessons 2.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland?* New York: Teachers College Press.

12. Angliya Ta'lim Departamenti (DfE). *The National Curriculum in England: Key Stages 1 and 2 Framework Document*. [Elektron resurs].

13. Ismoilov, A. A. (2021). Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash. Toshkent: Ta'lim inspeksiyasi.